

## Q'ZBEKİSTONDA AYOLLAR HUQUQLARI VA ULARNING KAFOLATLARI

*Bekmuhammadova Sabrina Ismoil qizi, Guliston davlat pedagogika instituti*

## WOMEN'S RIGHTS AND THEIR GUARANTEES IN UZBEKISTAN

*Bekmuhammadova Sabrina Ismoil qizi, Gulistan State Pedagogical Institute*

## ПРАВА ЖЕНЩИН И ИХ ГАРАНТИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

*Бекмухаммадова Сабрина Исмоил кызы, Гулистанская  
государственный педагогический институт*

[https://orcid.org/009-009-  
1883-9465](https://orcid.org/009-009-1883-9465)  
e-mail:  
[bekmuhammedova@gmail.com](mailto:bekmuhammedova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O'zbekistonda ayollarning huquqiy himoyasini ta'minlash, gender tengligiga erishish va oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurash bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning holatini kompleks tahlil qiladi. Maqolada mavjud qonunchilik bazasining samaradorligi, davlat tomonidan qabul qilingan siyosat va strategiyalarning ta'siri, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ayollar huquqlariga ta'siri o'r ganiladi. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatidagi muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari va xalqaro tajribadan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqola natijalari gender tengligini ta'minlash, ayollar huquqlarini himoya qilish va zo'ravonlikka qarshi kurashning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston qonunchiligi, ayollar huquqlari, gender tengligi, huquqiy kafolatlar, mehnat huquqi, oilaviy huquq, zo'ravonlikdan himoya, teng imkoniyatlari, Konstitutsiyaviy ijtimoiy himoya.

**Abstract:** This article provides a comprehensive analysis of the state of work carried out in Uzbekistan to ensure the legal protection of women, achieve gender equality and combat domestic violence. The article examines the effectiveness of the existing legislative framework, the impact of policies and strategies adopted by the state, as well as the impact of socio-economic factors on women's rights. Problems in the activities of law enforcement agencies, ways to eliminate them and opportunities for using international experience are considered. The results of the article are aimed at identifying promising areas for ensuring gender equality, protecting women's rights and combating violence.

**Keywords:** Uzbek legislation, women's rights, gender equality, legal guarantees, labor law, family law, protection from violence, equal opportunities, Constitutional social protection.

**Аннотация:** В статье дается комплексный анализ состояния работы, проводимой в Узбекистане по обеспечению правовой защиты женщин, достижению гендерного равенства и противодействию бытовому насилию. В статье рассматривается эффективность существующей законодательной базы, влияние политики и стратегий, принимаемых государством, а также влияние социально-экономических факторов на права женщин. Будут рассмотрены проблемы в деятельности правоохранительных органов, пути их устранения, возможности использования международного опыта. Результаты статьи направлены на выявление перспективных направлений обеспечения гендерного равенства, защиты прав женщин и борьбы с насилием.

**Ключевые слова:** законодательство Узбекистана, права женщин, гендерное равенство, правовые гарантии, трудовое право, семейное право, защита от насилия, равные возможности, Конституционная социальная защита.

**KIRISH (INTRODUCTION).** O‘zbekistonda gender tengligi va ayollar huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Bu yo‘nalish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qator qonun hujjatlari bilan mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lib, jamiyatning barqaror rivojlanishi va har bir fuqaroning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun zarur shart hisoblanadi. Mamlakatimizda bu sohada sezilarli yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, xususan, ayollarning ta’lim olishi, sog‘lig‘ini saqlash va siyosiy hayotda ishtirok etishi borasida muhim qadamlar qo‘yildi, ammo ayollarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, ularning huquqlarini to‘liq ta‘minlash va gender tenglikka erishish uchun hali ko‘p ishlar qilish zarur. Bu, ayniqsa, mehnat bozorida teng imkoniyatlarni yaratish, oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashish va qizlar ta’limini rag‘batlantirish kabi sohalarda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi O‘zbekistonda gender tengligi va ayollar huquqlari sohasidagi qonunchilik, amaliyat va istiqbollarni keng qamrovli tahlil qilishdan iborat. Tahlil jarayonida O‘zbekistonning xalqaro majburiyatlari, milliy qonunchilikning xususiyatlari, amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi va mavjud muammolar o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada kelgusida gender tenglikka erishish va ayollar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi, jumladan, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro tashkilotlarning hamkorligini mustahkamlash, gender siyosatini yanada takomillashtirish va jamiyatda gender tenglik madaniyatini shakllantirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

**METODLAR (METHODS).** O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi<sup>1</sup>, Jinoyat kodeksi<sup>2</sup>, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi<sup>3</sup>, “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston respublikasining ayrim qonun

hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida”gi<sup>4</sup> qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar gender tengligini ta‘minlash va ayollar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha asosiy tamoyillarni belgilab beradi. Mazkur hujjatlar gender tengligi masalalari bo‘yicha davlat siyosatining huquqiy asosini tashkil etadi.

“Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, “Gender tenglik strategiyasi – 2030”<sup>5</sup> va boshqa amaliy dasturlar ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirishga qaratilgan. Masalan, “Gender tenglik strategiyasi – 2030”da “2030-yilga kelib barcha sohalarda gender tenglikka erishish” maqsad qilib qo‘yilgan.

Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari, gender tengligi sohasidagi muammolarni aniqlash va ularni hal etish uchun empirik asos bo‘lib xizmat qiladi. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda oilaviy zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha 15,000 dan ortiq murojaat qayd etilgan. Bu ko‘rsatkich 2022-yilga nisbatan 10% ga o‘sishni tashkil etadi<sup>6</sup>, bu esa oilaviy zo‘ravonlik muammosining dolzarbligini yaqqol ko‘rsatadi. Shuningdek, agentlik ma’lumotlariga ko‘ra, ayollar o‘rtasida ishsizlik darajasi erkaklarga nisbatan yuqori bo‘lib, 2023-yilda 9,8% ni tashkil etdi, erkaklar o‘rtasida esa bu ko‘rsatkich 7,2% ga teng. Bu fakt mehnat bozorida gender tengsizlik mavjudligidan dalolat beradi.

**NATIJALAR (RESULTS).** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda ayollarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha mustahkam qonunchilik bazasi yaratilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (58-modda) ayollar va erkaklar teng huquqlarga ega ekanligi belgilab qo‘yilgan. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlar va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”<sup>7</sup>gi qonunda gender tengligini ta‘minlashning asosiy mexanizmlarini belgilaydi. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”<sup>8</sup> gi qonun asosida tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish mexanizmlari

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/-6445145>

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/-111453>

<sup>3</sup> <https://lex.uz/acts/-97664>

<sup>4</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-6430272>

<sup>5</sup> <https://lex.uz/docs/-5466673>

<sup>6</sup> <https://www.kun.uz/news/2024/02/07/ozbekistonda-2023-yilda-9-131-kishi-oilaviy-zoravonlik-qilgani-uchun-jazoga-tortilgani-malum-boldi>

<sup>7</sup> <https://lex.uz/docs/-4494849>

<sup>8</sup> <https://lex.uz/en/docs/-4494709?ONDATE2=12.04.2023&action=compare>

belgilab berilgan. Shuningdek, davlat tomonidan “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”<sup>9</sup> kabi dasturlar orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarga yordam ko’rsatilib kelinmoqda. Siyosiy huquqlar sohasida ayollarning saylov va referendumlarda ishtirok etish huquqi ta’minlangan. O’zbekiston Respublikasi Saylov kodeksiga muvofiq, siyosiy partiyalarning deputatlik ro’yxatlarida ayollar kamida 30% bo’lishi talab qilinadi.

**MUHOKAMA (DISCUSSION).** Huquqni muhofaza qilish organlarining ayollarga nisbatan zo’ravonlik holatlarini samarali tergov qilish uchun yetarli resurslarga ega emasligi, bu holatlarning to’liq tekshirilishiga va aybdorlarning javobgarlikka tortilishiga to’sqinlik qilmoqda. Resurs yetishmasligi, jumladan, malakali tergovchilarning, maxsus jihozlarning va zamonaviy tergov usullarining yetishmasligini o’z ichiga oladi.

Zo’ravonlik qurbanlarining ko’pchiligi zo’ravonlik haqida xabar berishga qo’rqadi, chunki ular jamiyatning salbiy munosabatidan, qarindoshlar tomonidan bosimdan yoki qasosdan qo’rqishadi. Guvohlik yig’ish ham murakkab jarayon bo’lishi mumkin, chunki guvohlar ham xavfsizlikdan qo’rqishlari yoki oilaviy ishlariga aralashishni istamasliklari mumkin. Bu holatlar tergov jarayonini qiyinlashtiradi va aybdorlarning jazolanishiga to’sqinlik qiladi.

Ba’zi hollarda, huquqni muhofaza qilish organlari oilaviy sirni saqlash tamoyiliga haddan tashqari urg’u berishadi, bu esa oilaviy zo’ravonlik holatlaridaadolatli qarorlar qabul qilinishiga to’siq bo’lishi mumkin. Oilaviy zo’ravonlik holatlari xususiy masala emas, balki jinoiy javobgarlikka sabab bo’ladigan jamoat xavfsizligiga tahdid ekanligini tushunish muhim.

Ayollarga nisbatan zo’ravonlik holatlari bo’yicha huquqiy madaniyatni oshirish, targ’ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini gender sezgirligini oshirish bo’yicha maxsus treninglar bilan jihozlash zarur. Jamiyatda zo’ravonlik qabul qilinishi mumkin emasligi, zo’ravonlikka toqatsizlik munosabatini shakllantirish va qonunlar haqida xabardorlikni oshirish muhim.

Mahalliy jamoalar va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda ijtimoiy qo’llab-quvvatlash punktlari sonini ko’paytirish muhim ahamiyatga ega.

Zo’ravonlik qurbanlariga psixologik, huquqiy va ijtimoiy yordam ko’rsatadigan, ularning reabilitatsiya va reintegratsiyasiga yordam beradigan qo’llab-quvvatlash markazlari sonini ko’paytirish zarur.

**XULOSA (CONCLUSION).** O’zbekistonda ayollarning huquqlari va kafolatlari doimiy ravishda mustahkamlanib boradi, bu esa mamlakatning barqaror rivojlanishi va demokratik jamiyat qurish yo’lidagi muhim qadamdir. Biroq, ushu sohada erishilgan yutuqlarga qaramasdan, ayollarga nisbatan zo’ravonlik, gender tengsizlik kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Zo’ravonlikka qarshi samarali kurashni ta’minalash uchun tizimli yondashuv orqali qonunchilikni takomillashtirish, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini optimallashtirish, ijtimoiy xizmatlar ko’lamini kengaytirish va jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish zarur.

Ushbu tadqiqot doirasida quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

-Oila zo’ravonligi uchun jazo choralarini kuchaytirish, zo’ravonlik qurbanlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish va gender tenglikni ta’minalash bo’yicha qonun hujjalari yanada rivojlantirish lozim. Shuningdek, qonunchilikdagi bo’shliqlarni bartaraf etish va xalqaro standartlarga moslashtirish muhimdir.

-Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining gender sezgirligini oshirish bo’yicha muntazam treninglar o’tkazish, ularni zamonaviy tergov usullari bilan ta’minalash va zo’ravonlik holatlarini samarali tekshirish uchun zarur resurslar bilan ta’minalash lozim.

-Zo’ravonlik qurbanlari uchun reabilitatsiya markazlari, psixologik yordam punktlari va boshqa ijtimoiy xizmatlar sonini ko’paytirish, ularning sifati va quayligini oshirish zarur. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarni qo’llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish va ularning iqtisodiy mustaqilligini ta’minalashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish muhimdir.

-Ommaviy axborot vositalari, ta’lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari orqali aholi o’rtasida gender tenglik, ayollar huquqlari va zo’ravonlikka toqatsizlik madaniyatini targ’ib qilish bo’yicha keng ko’lamli kampaniyalar o’tkazish lozim.

<sup>9</sup> <https://www.lex.uz/docs/-5512119>

Faqat shu yo‘l bilan jamiyatimizda zo‘ravonlikni kamaytirish, ayollarning haq-huquqlarini himoya qilish va gender tenglikni ta’minlash mumkin. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekistonning barqaror va farovon kelajagini ta’minlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. <https://lex.uz/docs/-111453>
3. <https://lex.uz/acts/-97664>
4. <https://lex.uz/uz/docs/-6430272>
5. <https://lex.uz/docs/-5466673>
6. <https://www.kun.uz/news/2024/02/07/ozbekistonda-2023-yilda-9-131-kishi-oilaviy-zoravonlik-qilgani-uchun-jazoga-tortilgani-malum-boldi>
7. <https://lex.uz/docs/-4494849>
8. <https://lex.uz/en/docs/-4494709?ONDATE2=12.04.2023&action=compare>
9. <https://www.lex.uz/docs/-5512119>
10. Isaxova S.M., Bekmuhamadova S.I.Q. Ta’limda xotin-qizlar ijtimoiy himoyasi va tenglik masalasining qonuniy mexanizmlari //Academic research in educational sciences. – 2024. – T. 5. – №. TSUE Conference 1. – C. 71-73.
11. AKBARJONOVICH M.A. Migratsiya jarayonining tahlili va muammoli jihatlari //IQRO jurnali. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 628-631.
12. MANSUROV A. Development stages of migration from a historical point of view //News of the NUUz. – 2024. – T. 1. – №. 1.1. – C. 108-111.

